ASQAD MUXTOR (1920-1997)

Asqad Muxtor 1920 yil 23 dekabrda Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. O’zbekiston xalq yozuvchisi (1980). O’rta Osiyo universitetining filologiya fakultetini tugatgan (1942). Dastlabki dostoni — «Bizning avlodlar» (1939). «99 miniatyura» (1962), «She’rlar» (1966), «Sirli nido» (1984) va boshqa she’riy to‘plamlar muallifi. «Bo‘ronlarda bordek halovat» (1976) qissasi hamda «Davr mening taqdirimda» (1964), «Chinor» (1969), «Amudaryo» (1986) kabi romanlari bor. «Mardlik cho‘qqisi» (1948), «Chin yurakdan» (1956), «Dunyo bolalari» (1962), «Ildizlar», «Jar yoqasidagi chaqmoq» (1984), «Kumush tola» (1988) singari asarlari bolalarga bag‘ishlangan. «Tong bilan uchrashuv» (1987) pesalar to‘plami nashr etilgan. Hamza nomidagi O’zbekiston Davlat mukofoti laureati (1972). «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlangan (1995). 1997 yil 17 aprelda Toshkent shahrida vafot etgan.

* * *

Ikki narsa og‘ir ko‘ngaimga asli,
Ikki narsa uchun yo‘q menda bardosh:
Biri - dushmanimning shodon qahqahasi,
Biri - do‘st ko‘zida miltillagan yosh.

* * *

Daraxtlarni burkab
Oq tuman suzar.
Eshitilmas qushlar navosi.
Nega muncha g‘amgin...
Nega dilni ezar
Erta bahor kuni bu kuz havosi?
Men nega yuribman
Bog‘ni aylanib,

Uyda axir ishim oz emas:
Stolda yotibdi chala satrlar...
Men nega yuribman,
Koʻnglim yozilmas?..

Bir qiz,
bir yigitni koʻrdim shu damda.
Ular shoshib kelib,
tez qoʻl olishdi.
Shumshaygan daraxtlar tagida, namda
Uzoq,
uzoq turib qolishdi...
Baxtliman.
O, mening toleim koʻrkam.
Koʻnglim quvonchlarga toʻldi limmo-lim,
Chunki, qaerdadir,
uzoqda boʻlsa ham,
Yer yuzida sen borsan, jonim.

* * *

Kuzgi yellar, xazonrez yellar,
Bogʻlardan bogʻlarga koʻchasiz.
Gullar xushboʻyini,
Oltin barglarini
Qayoqlarga olib uchasiz?

Yalangʻoch shoxlarda izgʻib,
Koʻchib ketgan
Qushlar uyasini titasiz.
Koʻz oldimda tortqilab, yulqib,
Yoz husnini olib ketasiz.

Ammo men bilaman -

Olib ketolmaysiz
Umrim bahorining bir yaprog‘ini.
Ko‘klam shabbodasi bo‘lib qaytarsiz
G’arq pishgan bog‘larim sog‘inib.

UMR

Kuni kecha shu so‘rida yotganimda
Oy shu’lasi tushmas edi yuzlarimga:
Yaproqparning titroq, yashil sharpalari
Orom olib kelar edi ko‘zlarimga.
Bugun bo‘lsa tanga-tanga nur tushipti.
Mijjam horg‘in, uyqu bermas yorug‘ yulduz.
Birdaniga yuragim shuv etib ketdi:
Kuz kelipti, kuz...

* * *

Men ko‘p yo‘llar yurdim,
Ko‘p narsani ko‘rdim,
Goh sog‘inib,
Goho
Shodlikdan jo‘shib;
Qanot chiqqan qushday
Uyasiga sigmay,
Yuragimda talpinar qo‘shiq.

* * *

Men seni o‘ylayman,
o‘ylarim cheksiz,
Shunday cheksiz bo‘lsin baxtli kezlaring.
Men seni o‘ylayman.
o‘ylarim tengsiz.

Shunday tengsiz sening tiniq koʻzlaring.
Men seni oʻylayman,
oʻylarim uzun,
Ki undan shundayin bir arqon oʻrsam,
Chirmab tutib bersam sevgan yulduzing
Soʻngra sen koʻksingda porlatib yursang
Men seni oʻylayman...

* * *

Oradan gap qochsa, yaraday qiynar.
Shunday iz qoldirar soʻzning qamchisi
Goh tun sukutida eshitib qolaman –
Gurs etib tushadi koʻz yosh tomchisi.
Nima gap oʻzi?

Nahot koʻqtsan uzilib tushgan boʻlsa
Nikoh yoshimizning yorugʻ yulduzi...

GULLAR

Lola gulxanlari yoʻl yoqasida...
Umrimda juda koʻp yoʻllar bosdim men
Bahor epkinidan yurak orziqadi,
Yoʻllardan ham koʻproq gullar bosdim men.

Koʻksim bilan bosdim,
ezdim poshnam bilan,
Chamanlar, chamanlar toptadim!
Balki shuning uchun
yigirma yil izlab,
Gulgun yuzlaringdan orom topmadim.

Balki oʻsha yillar

dil xazinasidan
Qandaydir javohir yo‘qotdim.
Yovga o‘q otishim kerak edi mening,
Gullarni ko‘rmadim.
Yovga o‘q otdim.

Shoshish zarur edi,
shoshish, otish zarur,
Men o‘lim girdobi bo‘lishim kerak.
Tunlar sozliqlarda o‘rmalarkanman,
Gullarning infashin tinglardi yurak.

Ha, ko‘p gul bosdim men.
O’rni to‘larmikan
Gul bo‘lib ochilsa har qalb tepishi?
Qirda lola fasli chalqancha yotib,
Borliqni unutging keladi kishi.

Meni nafratlamas lolam, jonginam,
U hamon mehr ila menga boqadi.
Men quloq solaman:
tomirlaridan,
Mangulik sharbati silqib oqadi.

Gulgun yonog‘ida shabnam qatralari...
Negadir eslayman bolalarimni.
Borliqni unutish kerak emas, yo‘q,
Ardoqlayman lolalarimni!

Etik poshnasidan ardoklayman, o‘kdan,
Dovul tursa - qalqon bo‘laman!
O’lsam, faqat Beloyanis kabi
Tishimda gul tishlab o‘laman.
Tishimda gul tishlab o‘laman...

TUG‘ILISH

Tong oldidan yomg‘ir sevalab o‘tdi,
Keyin ko‘k ochilib, yog‘di yulduzlar.
Yerdan hovur ko‘tarildi, xuddi
Qimirlagan kabi zimdan ildizlar.

Kimgadir muqaddas bir zum yaqinladi,
Qorovul o‘chirdi so‘nggi fonarin.
Iyul quyoshining ilk yolqinlari
Yaproqlarga sachrab yonardi.

Yer yosh: soflik jimirlatar etin,
Zoriqqan g‘unchalar ochildi bog‘da.
Panjaradan oshib chiqib ketdi,
Maysalarda yurgan yashil shabboda.

Eshikdan eshikka yugurib yelardi,
Suyunchi so‘rardi, suyunchi.
U go‘yo taqdirni olddan bilardi,
Go‘yo yo‘q dunyoning g‘ami, kuyunchi.

Iymanibroq turar ota poygakda,
Ko‘ksida yulduzi, bir qo‘li mayib.
Ichkarida esa, oppoq choyshabda
Jahonning umidi yotar jilmayib.

***

Bilmadim, yo‘lingga kimlar bo‘ldi g‘ov,
Bezidi kulbamdan fayzu farishta.
Ko‘ngil mulkim mening alg‘ov-dalg‘ov,
Qayt, dunyomni qilgil sarishta.

Bari o‘lja-jo‘lda — ro‘zg‘or, his, xayol,
Sening qo‘llaringga hammasi mushtoq.
Quvonch gullarimga suv sep, sohibjamol,
Bunda har mo‘’jiza sening sehringdan.

Xayol zulmatiga soching chulg‘anar,
Qiynar ilk nigohing mangu lahzasi.
Devorda soyadek es-es to‘lg‘anar
Tungi bo‘salarning sirli lazzati.

Aytsang-chi, yo‘lingda kimlar bo‘ldi g‘ov,
Bezdi-ku kulbamdagi fayzu farishta.
Ko‘ngil mulkim mening alg‘ov-dalg‘ov,
Qayt, yana dunyomni qilg‘il sarishta.

YO‘L

Ostonamdan taralgan yo‘llar
Eslatadi quyosh nurini.
Uzoq-uzoqlarga ketib, uzayib,
Uzaytadi mening umrimni.

Yurganlarni daryo deydilar,
Daryo — cheksiz umr ertagi.
Bir kun uyda o‘ltirib qolsam,
Hayot go‘yo chetlab o‘tadi.

Ko‘rganing — seniki, der edi bobom,
Ellarni, dillarni kerak ko‘rishim.
Ochilmagan qo‘riq, noma’lum yulduz
Bari-bari — mening ulushim.

Ijod dardi — yo‘l azobidir,
Mayli, bo‘lsin tumanlar quyuq.

Ruhim bilan yo‘lda ekanman,
Umrimning ham nihoyasi yo‘q.

QIYNALISH

Kitoblarim varaq-varaq,
Siz qaylarda sarsari?
Umrim edi yashil daraxt,
Sizlar uning barglari.

M?n siz bilan nafas oldim,
Dard bilan yaraldingiz.
Har gal o'ksib qoldi qalbim,
Yellar-la taraldingiz.

Oppoq bulut suzib o'tdi,
Yana tomchi tommadi...
Nahot bunga ham ko'nikdim,
Dardli o'ylar qolmadi?

Mayli, agar to'ymasa
Dilimning qaqroqlari,
Dovul tursin, to'kilsin
Umrimning yaproqlari:

QALBIM NOZIKLASHDI

Yangi yilning yaqin oppoq tuni:
Bolalar orziqib tunni kutadi.
O'tgan yili uchgan nafis qor uchquni
Yangi yil sarhadin buzib o'tadi.

Bolalar hovliqib yangi yil kutadi,
M?nga esa yil kuzatish- g'am:

Qilt etib uzilgan bitta yaproq ham
Naq qalbimga t?gib o'tadi...

* * *

Hayot shunday mo'jizaki:
Qancha jabrin tortsang oz.
O'lim esa uning uchun
Arzimas bojdir, xolos.

TUN O'Y SURAR

Bizning bog'da oqshom paytlari,
Yig'ib olganida kun shu'lasini,
O'tlar orasida yashil chigirtka
Boshlaydi tinimsiz ashulasini.

Bu kichkina jonning so'zsiz qo'shig'in
Asli fidoyilik d?sa bo'ladi.
'Hayot bor...'-tun bo'yi o'jar bir ta'kid,
Katta sukunatning jonli bo'lagi.

Shu chirillash borki, nazarimda,
Tun o'y surar, tabiat tugal.
U bo'lmasa so'qir k?chalari
Ruhimiz huvillab qolardi gar gal.

Qashshoqroq bo'lardi tun manzarasi,
Bunday s?hriy ta'sir etmasdi
Ham umumjahoniy garmoniyada
Bir azaliy ohang y?tmasdi...

* * *

Bizning bog'da chiqsang oqshom sayriga,
Yo oralab yursang s?n ishkomlarni.
Cho'chitmagil s?vishganlarni,
Osmonlarda s?zsin o'zni, mayliga.

Bu lahzalar bir umrga tatir.
Bu lahzalar sinar yoshlik sabrini.
Biz shularni ko'rib bilamiz axir
Tungi yulduzlarning qadrini.

* * *

Bizning bog'da birinchi qor yog'di.
O'yga yomonliklar k?lmaydi sira.
S?n m?ning qorimsan, birinchi qorim,
Go'yo butun olam s?nday bokira.

Butun olam shunday oppoq tinlik,
Bahor gullarining hidi k?ladi.
Bahor gullarid?k, qor tagida mudrar
Odamlarning ezgu tilagi.

* * *

Bizning bog'da tun cho'kkan mahal
Qalbni uvishtirar ukki nolasi.
Birov d?r, u chorlar badbaxt qismatni,
Birov d?r, qarg'armish o'gay bolasin.

Musibatday sovuq, uzoq,goh yaqin,
Balki gado folbin, balki jinnidir.
U o'zi b?gona ko'zdan yashirin,
L?kin chaqiradi hamon kimnidir.

B?tinim sannaydi, nazarimda tunni
Qora bo'laklarga bo'lib chiqadi.
Nimaga o'xshatsang, nima d?sang ham
Bir g'amgin afsona bo'lib chiqadi.

Oqlolmagan emish ona sutini,
Oq sut tilar emish, degan gap:
Bu ham-ertak. Shunday so'lim tunda
Ertak ro'parangdan chiqsa ne ajab.

Hayot shu ekan-da: yog'du va zulmat,
Qishu yoz, o'ngu tush, tirik va o'lik.
Shusiz bo'lmas ekan tugallik sira,
Hatto qush nag'masi: go'zal va xunuk.

* * *

Bizning bog'da shifobaxsh o't bor,
Xalq uning otini bargizub demish.
Chunki o'sha o'tni tunlari bedor
Yulduzlar nur bilan sug'orar emish.

Siz bilasiz mening yonishlarim,
Satrlarga ko'chgan qalb cho'g'imni,
O,yulduzlar,tungi tanishlarim,
Nur bilan sug'oring shu qo'shig'imni.

Ehtimol,shunda u biron kimsaning

Yurak yarasiga malham bo'lardi.
Guldek ochilardi zamin insonning
Atigi bir zumga arisa dardi.

* * *

Ts?zar ertalabdan noxush edi bog'da,
Dunyo ko'z o'ngida b?gona, erish.
Xunuk bir tush ko'rdi. Ruhi alag'da.
Tushda o'z onasin zo'rlagan emish...

Darhol chorladi u kulli ulamo,
Munajjimlar, folbinlarini.
To ta'bir etilsin bu mudhish ro'yo,
Istiqbolimi bu, oldinlarimi?

Ular jahongirni tang qoldirdilar,
Tush emas, bu omad sitorasi, d?b.
Zaminga hokimlik ishorasi, d?b,
Botin niyatlarin o't oldirdilar.

Ha, Zamin... Ona-Yer! Ch?ksiz olamda
Tiriklikni tuqqan yagona manzil.
Uni tahqirlayman d?gan har banda,
Har xudo - razil...